
ALLERGIK KASALLIKLARNING KLINIK MANZARASI VA O 'ZIGA XOSLIGI

Sattorova Ruxshonaxon Rafiqjon qizi¹

¹ Davolashi shi 2-bosqich talabasi

Kamalova Dilfuza Adilovna¹

¹ CAMU Anatomiya va Mikroanatomiya
kafedrasi assistenti

MAQOLA MA'LUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 19.11.2024

Revised: 20.11.2024

Accepted: 21.11.2024

Ushbu maqolada allergik kasalliklarning klinik belgilarini aniqlash. Har xil allergik reaksiyalar qanday belgilar bilan namoyon bo 'lishini tushuntirish, shu orqali bemorlarda allergiya mavjudligini erta aniqlash.

KALIT SO`ZLAR:

Nafas olish allergiyasi,
teri allergiyasi, ovqat
allergiyasi, anafilaksiya,
immunoglobulin, allergik
rinit, atopik dermatit,
bronxial astma,

KIRISH. Mavzuning dolzarbliji. Allergik kasalliklarning dolzarbliji hozir kunda tobora ortib bormoqda. Bu kasalliklar nafaqat sog 'liqni saqlash tizimi uchun, balki umumiy populyatsiya uchun ham muhim muammolardan biriga aylanib bormoqda. Bugungi kunda allergik kasalliklar dunyo aholisining sezilarli qismini qamrab olgan. Jahon sog 'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, global miqyosda 20- 30% odamlar allergic reaksiyalarga moyil. Urbanizatsiya, havo ifloslanishi va sanoat chiqindilari allergik kasalliklar tarqalishiga katta hissa qo'shamoqda. Xususan, polen, chang va kimyoviy moddalar kabi allergenlar ko'payib bormoqda ,bu esa nafas yo'llari va boshqa allergic reaksiyalarning ko'payishiga olib kelmoqda.

Allergik kasalliklar – bu organizmning ma'lum moddalarga nisbatan yuqori sezuvchanligi natijasida paydo bo 'ladigan immune javoblaridir. Ushbu kasalliklarning klinik manzarasi turli ko 'rinishda namoyon bo 'lishi mumkin, bu organizmda qaysi tizim ta'sirlanganliga bog 'liq. Allergik kasalliklarning klinik manzarasi va o 'ziga xosligi:

Teri belgilar: Allergik reaksiyalarda terida toshma, qichishish, qizarish, shish paydo bo 'lishi kuzatiladi. Masalan , atopic dermatit, eczema va kontakt dermatit kabi kasalliklarda terida yallig 'lanish ko 'rinadi.

Nafas olish yo ‘llari belgilari : Allergik rinit va bronxial astma kabi kasalliklarda nafas yo ‘llari ta’sirlanadi. Bu holatlarda bemorlarning burun bitishi, aksirish, burun oqishi, nafas qisilishi, yo ‘tal va nafas olishda qiyinchilik kabi belgilar paydo bo ‘ladi.

Ovqat hazm qilish tizimi belgilari: Allergik reaktsiyalar oshqozon-ichak tizimini ham ta’sir qilishi mumkin. Bu esa ko ‘ngil aynishi ,qayd qilishi , qorin og ‘rig ‘i, ich ketish kabi belgilar bilan namoyon bo ‘ladi. Masalan, oziq-ovqat allergiyalari shunday reaksiyalarni keltirib chiqarishi mumkin.

Anafilaksiya: Eng o ‘gir va xavfli allergic reaktsiya turli hisoblanadi. Anafilaksiya turi tezrivojlanib, hayot uchun xavfli holatni keltirib chiqarishi mumkin. Bu holatda qon bosimitushishi, nafas qisishi, yurak urushi tezlashishi va hushdan ketish kabi belgilar paydo bo ‘ladi. Allergik kasalliklarning asosiy xususiyati shundaki, ular odatda aniq allergenlar bilan aloqada payo bo ‘ladi. Bu allergenlar polen, chang ,uy hayvonlari junlari, oziq-ovqat mahsulotlari , dori vositalari va boshqa ko ‘plab omillar bo ‘lishi mumkin. Allergic kasalliklarda organizmda immunoglobulin E hosil bo ‘ladi, bu esa allergic reaktsiyalar rivojlanishiga sabab bo ‘ladi.

Allergik kasalliklarning o’ziga xos xuxusiyatlari:

Immun javobning o ‘ziga xosligi: Allergik kasalliklar immune tiziming IgE sinfidagi antitanalar ishlab chiqarishi va organizmning xavfsiz moddalarga kuchli immune javob berishi natijasida yuzaga keladi. Bunda organizmning himoya mexanizmlari haddan tashqari faollashadi, bu esa turli organlarda yallig’lanish va disfunksiya keltirib chiqaradi.

Allergenlarning turli-tumanligi: Allergik reaktsiyalarini keltirib chiqaruvchi moddalarning turlari juda ko ‘p. Ularga uy changi, hayvonlar junlari, oziq-ovqat mahsulotlari, dori vositalari va hasharot chaqishi kiradi. Har bir bemorda allergiya sababchisi bo ‘lgan allergenlar individual bo ‘lishi mumkin.

Kasalliklarning rivojlanishida genetic moyillik: Allergik kasalliklar ko ‘pincha irsiy bo ‘lib, oila a’zolari orasida allergiyaga moyillik mavjud bo ‘lishi mumkin. Agar ota-onalarning kasalliklardan aziyat chekkan bo ‘lsa, bolalarda ham allergiya rivojlanish xavfi yuqori bo ‘ladi.

Xulosa: Bemorlarning klinik belgilarining har xil bo ‘lishi va allergenlarga nisbatan sezuvchanligi tufayli davolash individual yondashuvni talab qiladi. Bu esa kasallikning o ‘ziga xos xususiyatlaridan biridir. Allergik kasalliklar zamonaviy dunyoning keng tarqalgan va dolzarb sog ‘liq muammolaridan biridir. Ushbu kasalliklarning klinik manzarasi turli xil bo ‘lib, bemorlarda teri, nafas olish, oshqozon-ichak tizimi kabi bir qancha tizimlarda sezilarli noqulayliklarga olib keladi.

Foydalanimadabiyotlar:

1. Franklin Adkinson Jr. MD, William W Busse MD, et al. Middleton's Allergy: Principles and Practice. Expert Consult: Online and Print, 2-Volume Set 7th Edition. 2008. 1924 p.
2. Fayziyev X.N. Bolalarning parvarishi. O ‘quv-uslubiy qo ‘llanma. T.: -2009. 76 b. "Экономикаисоциум" №4(119) 2024 www.iupr.ru
3. Eshboyev E.H. Teri va tanosil kasalliklari. Ma’ruzalar to ‘plami. A.: -2018. 20 b. 4. Mamadov Yu.M., Xo‘jamberdiyev M.A., Mamadov B.Yu. Klinik formokologiya. T.: -2010. 464 b. <https://www.rlsnet.ru/active-substance/mometazon-1145#structurnaia-formula>
5. Fischer D, Vander Leek TK, Ellis AK, Kim H. Anaphylaxis. Allergy Asthma Clin Immunol. 2018;14(Suppl 2):54. [PMC free article] [PubMed]
6. Decker WW, Campbell RL, Manivannan V, Luke A, St Sauver JL, Weaver A, Bellolio MF, Bergstrahl EJ, Stead LG, Li JT. The etiology and incidence of anaphylaxis in Rochester, Minnesota: a report from the Rochester Epidemiology Project. J Allergy Clin Immunol. 2008 Dec;122(6):1161